

JINOYAT HUQUQI TUSHUNCHASI VA VAZIFALARI VA PRINSIPLARI

Ibrohimov Dostonbek Rustam o'g'li*Andijon davlat pedagogika instituti MG'MAHT**kafedrasi o'qituvchisi***Muhammadjonova Marjona Xabibullo qizi***Andijon davlat pedagogika instituti "Tarix" yo'nalishi**2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu maqolada jinoyat tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, uning qanday vujudga kelishi asoslari, belgilari va tasniflanishi haqida so'z borgan bo'lib, shu bilan birga hozirgi zamonaviy huquq tizimini tarkibiy qisimlari va predmeti, metodlari, vazifalarini keng asoslar orqali tushuntirilib o'tilgan, shu bilan birga jinoyatni osonlashtirish maqsadida jinoyat huquqi fani orqali keng yoritilib o'tilgan, jinoyatni ko'rib chiquvchi sud organi orqali amaliyotda qay tartibda amalga oshishni ko'satilib o'tilgan.

Kalit so'zlari: Jinoyat kodeksi, jinoyat huquqi, huquq sohasi, qonunchilik sohasi, demokratizm, insonparvarlik prinsipi, odillik prinsipi, jinoyat huquqi fani, huquqni muhifaza qiluvchi organlar, huquqbuzalik belgilar, insonparvarlik prinsipi.

Аннотация: В этой статье дается определение понятия преступления, рассматриваются основания, признаки и классификация его возникновения, при этом подробно излагаются составляющие и предмет, методы, задачи современной системы современного права, при этом широко освещается наука уголовного права с целью облегчения совершения преступления, через судебный орган, рассматривающий уголовное дело, указывается, в каком порядке оно будет осуществляться на практике.

Ключевые слова: Уголовный кодекс, уголовное право, отрасль права, отрасль права, демократизм, принцип гуманности, принцип справедливости, наука уголовного права, правоохранительные органы, признаки правонарушения, принцип гуманности

Annotation: In reference to our work, this article describes the concept of crime and talks about the basics, signs and classification of what kind of body it comes from, at the same time explaining the current modern system of law through structural terms and subject, methods, tasks on broad grounds, at the same time it is widely covered by the science of criminal law in order to facilitate

Keywords: Criminal Code, Criminal Law, field of Law, Legislative Branch, democratization, principle of humanism, principle of Justice, Science of criminal law, law enforcement agencies, signs of infraction, principle of humanism

Kirish

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy huquq tizimining tarkibiy qismi bo'lgan jinoyat huquqi nafaqat huquqning alohida mustaqil sohasi sifatida o'rganiladi. Shunga ko'ra, jinoyat huquqi o'zining predmeti, metodlari va vazifalari bilan boshqa huquqiy fanlaridan alohida ajralib turadi. «Jinoyat huquqi» tushunchasi bir necha ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Masalan: 1) huquq sohasi; 2) qonunchilik sohasi; 3) fan sohasi; 4) o'quv fanlari misol bo'la oladi. Barcha huquq sohalari kabi jinoyat huquqining asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan normalari orqali tashkil etiladi. Jinoyat huquqi huquq sohasi sifatida ham qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan jinoyat qonunchiligi va huquqiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Jinoyat huquqi O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining ajralmas tarmog'i bo'lib, Oliy Majlis tomonidan o'rnatilgan jinoiy javobgarlikning asoslari va prinsiplari, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligi, jazoga sazovorligi, javobgarlikka tortish va jazodan ozod qilish asoslari va jinoyat huquqiga oid huquqiy ta'sir choralarini belgilovchi yuridik normalar yig'indisidan tashkil topgan deb aytsak bo'ladi. «Jinoyat huquqi» tushunchasining huquq sohasi hamda yuridik fan va o'quv kursi sifatida qo'llanilishi yagona normativ huquqiy jinoiy- huquqiy normalar tizimidan iborat bo'lgan amaldagi jinoyat qonunida taqdim etiladi.

Jinoyat huquqi qonunchilik sohasi sifatida davlatning oliy qonun chiqaruvchi organi:

– Oliy Majlis chiqargan qonun va normalar yig'indisini o'z ichiga oladi, u jinoiy javobgarlik asoslari va prinsiplari, ayrim qilmishlarning jinoiyligi va jinoiy jazoga loyqligi, jinoiy javobgarlikka tortish va jinoiy jazodan ozod qilish asoslari va meyorlari, jinoyat huquqiga oid ta'sirning jinoiy jazo hisoblanmaydigan hamda jinoyat huquqiga oid munosabatlar doirasida ijobiy va ijtimoiy foydali xulq-atvorni rag'batlantiruvchi boshqa ta'sir choralarini qo'llashni ta'minlaydi. Mazkur tushuncha jinoyat huquqini huquq sohasi sifatida tushunishdan birmuncha torroq ma'noga ega bo'lib, davlat va jinoyatchi shaxs o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Bu munosabatlar jinoyat sodir etilishi bilan boshlanadi hamda sudlanganlikning olib tashlanishi yoki jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish bilan tugaydi.

Jinoyat qonunining vazifasi o'ta muhim ijtimoiy munosabatlarni qo'riqlashdan iborat bo'lib, shu bilan birga ushbu vazifani bajarmay turib, qo'yilgan maqsadga erishish, qo'riqlanayotgan ijtimoiy munosabatlarga qilinadigan tajovuzlarning oldini olish va sodir etilgan jinoyat hamda uni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga davlat tomonidan o'rnatilgan majburlov choralarini qo'llash orqali ta'sir etish imkoniyatini amalga oshirilmaydi. Shunday qilib, jinoyat qonunining qabul qilinishi jinoyat huquqida ishlatiladigan boshqa tushunchalarga tuzatish kiritish va ularni yangicha sharhlash imkonini beradi. Jinoyat huquqi fan sohasi sifatida jinoyat

qonunlari, huquq va fan sohalarining rivojlanish tarixi, amaldagi qonunlar, jinoyat huquqiga oid normalarni qo'llash samaradorligi, xorijiy davlatlarning jinoyat huquqi va qonunlari, xalqaro va jinoyat huquqi normalari, jinoyat qonunlarini qo'llashning nazariy muammolari, jinoyat huquqi sotsiologiyasi, jinoyat qonunlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlariga xavf tug'diruvchi xulq-avtorning turli shakllari va boshqa shunga o'xshash muammolarning kelib chiqish sabablari va shartlari kabilarni o'rganishga qaratilgan huquqiy qarashlar, tasavvurlar va g'oyalar yig'indisidan iborat.

Jinoyat huquqi o'quv fani sifatida ham qo'llaniladi va u yuridik mutaxassislikka oid oliy va o'rta maxsus o'quv muassasalarida tinglovchilar, kursantlar va talabalarga o'rgatilib boriladi. Jinoyat huquqi fanining asosiy vazifasi jinoyat qonunchiligini qo'llashning, keyinchalik uni takomillashtirishning amaliy va nazariy muammolarini ishlab chiqish va uning samaradorligini oshirish, shuningdek, jinoyatga oid huquqiy siyosatni samarali amalga oshirish uchun jinoyat qonunchiligini kelajakda rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Jinoyat huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar mazmuni hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 2-moddasidagi vazifalarni shart qilib qo'yadi. Jinoyat huquqining vazifalari sifatida shaxs, uning huquq va erkinliklari hamda jamiyat va davlat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik shuningdek, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, jinoyatlarning oldini olish va fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni amalga oshiradi. Bunday ijtimoiy munosabatlar barcha huquqiy demokratik davlatlar negizini talqin etiladi. Bu vazifani amalga oshirish uchun maxsus, aniqrog'i, qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali amalga oshiriladi hamda u jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmishni sodir etish vaqtidan boshlab yuzaga keladi. Davlat ayrim qilmishlarni man etish yoki uni bajarishning majburiy ekanligini ko'rsatish orqali buzilishi salbiy oqibatlarga olib keladigan hamda barcha fuqarolar va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qiladi. Davlat va jamiyatning asosini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladigan shuningdek, ayrim qilmishlarga qat'iy taqiq o'rnatish bilan birga, davlat huquq bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilariga aniq yuridik vazifalarni yuklashdan iborat.

Davlatning jinoyat huquqi normalari bilan istalgan xulq-atvor turini ifodalash orqali, ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qiladi. Zero, u biror-bir huquqiy munosabat subyektlariga aynan shunday xatti-harakat qilish yoki, aksincha, jamiyatga zid bo'lgan ba'zi qilmishlardan o'zini tiyish majburiyatini yuklaydi. Basharti, jinoyat huquqiga oid normalarda belgilangan talablariga rioya qilinmasa, u holda jinoyat huquqiga oid qo'riqlanadigan munosabatlarni yuzaga keltiradi.

Huquqiy munosabatlarning mazmuni, munosabat subyektlarining huquq va majburiyatlari mazmunidan kelib chiqadi. Chunonchi, bular, bir tarafdin jinoyat huquqiga oid normadagi qoida yoki taqiqdan iborat bo'lsa, ikkinchi tarafdin sud hamda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlarga jinoiy javobgarlikni amalga oshirish, jazo tayinlash yoki huquqiy ta'sirning boshqa choralarini qo'llash vakolatini beruvchi davlat hisoblanadi. Har bir alohida sharoitda huquq va majburiyatlar hajmi turlicha bo'lishini hisobga olgan holda, jinoyat huquqiga oid munosabatlar mazmunini subyektlarining huquq va majburiyatlari majmui sifatida belgilash to'g'ri bo'ladi. Binobarin, davlat ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs bilan qonunga muvofiq muomalada bo'lish huquq va majburiyatiga ega, shaxs esa buni talab qilishi va u bilan bo'layotgan qonuniy muomalaga bo'ysunishi lozimligini anglatadi. Jinoyatlarning oldini olish ham jinoyat huquqining asosiy maqsadidir. Mazkur vazifalar jinoyat huquqiga oid taqiqdan kelib chiqadi hamda ba'zi toifadagi shaxslarning jinoyat sodir etishdan qaytarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Xulosa

Jinoyat huquqi predmetidagi maxsus ijtimoiy munosabatlarga jinoyat huquqiga oid tartibga soluvchi munosabatlar kirib, ular huquq beruvchi normalar asosida amal qiladi hamda haqqoniy, ijtimoiy foydali xulq-atvorni tartibga soladi. Huquq beruvchi normalar Jinoyat kodeksi Umumiy qismining uchinchi bo'limida belgilangan bo'lib, ular qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb nomlanadi.

Fuqarolarni zaruriy mudofaa holatida ijtimoiy xavfli tajovuzlardan o'zini, boshqa shaxsni, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash, oxirgi zarurat, buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik vaqtida zarar yetkazish huquqini beruvchi normalar ijtimoiy maqbul xulq-atvorni tartibga soladi. Mazkur normalarning bir qismi qonun oldida mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalashi, ularda jinoyat sodir etish yoki boshqa qonunga xilof xulq-atvorga murosasizlikni shakllantirishi bois, ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.
- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
- Ochilov X.R Jinoyat huquqi umumiy qism. O'quv qo'llanma 72-bet
- Rustamboyev M.X, Tohirov F. Jinoyat huquqi umumiy qism O'quv uslubiy qo'llanma T.; Yangi asr avlodi. 2002.-130-bet.
- Usmonaliyev M. Jazo tayinlash. O'quv qo'llanma. T.; Yangi asr avlodi. 2003.-120-bet
- Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi . Tom.3 Maxsus qism. Shaxsga qarshi jinoyatlar .Darslik , 2-nashr To'ldirilgan va qayta ishlangan –T.; o'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institute , 2018.-412-bet.